

## **YANGI O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK HOLATNING AYRIM JIHATLARI**

**Inagamova Mafura Muxtarxonovna**

*Toshkent davlat transport universiteti dotsenti (PhD), dotsent*

**Karimov Firdavs Toxir o'g'li**

*Toshkent davlat transport universiteti 2- bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada insoniyat oldidagi global ekologik muammolar, atrof-tabiiy muhitni muhofaza etish, flora va fauna olamini asrab avaylash yoitilgan. Shuningdek yurtimizdagi qo'riqxonalar, ekologik statistika va ekologik ekspertiza masalalariga to'xtalib o'tilgan. Ekologiya sohasidagi qonunchilik borasidagi ishlar ham ko'rsatib o'tilgan. Ekologik holatni sog'lomlashtirishda jamoatchilik ishtiroki, yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekologik muammolar, atrof-muhit muhofazasi, flora va fauna, qo'riqxona, milliy bog', ekologik ekspertiza, pitomnik, bioxilma-xillik, qizil kitob, ekotizim, ekologik konvensiyalar.

Bugungi kunda ekologiya bilan bog'liq muammolar global ko'rinish kasb etib, muayyan sharoitga moslashgan bir butun ekotizim yo'qolib ketishiga olib kelayotgani va bunga, bиринчи navbatda, antropogen omillari ya'ni — odam va uning xo'jalik faoliyatining o'simlik, hayvon va tabiat komponentlariga ta'siri bilan bog'liq omillar sabab bo'layotgani jahon ahlini tashvishga solmoqda. Albatta, insoniyat tamaddunining barcha bosqichlarida sayyoramiz tabiiy boyliklari, hayvonot va o'simlik olami inson hayotiy faoliyati uchun zarur ehtiyoj manbai bo'lib kelgan. Texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya, bioxilma-xillikni asrash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolar bir mintaqqa yoki bir mamlakatgagina emas,[1] balki barcha qit'alarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, insoniyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri — atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, global ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Chunki ekologlar yaqin ellik yilda sayyoramizda millionlab yillar davomida shakllangan biologik xilma-xillik qariyb 50 foizga kamayishi va bu ayanchli oqibatlarga olib kelishi haqida bizni bejiz ogohlantirmayapti. Buni sayyoramizda inson tomonidan hosil qilingan chiqindi miqdori tabiiy paydo bo'ladigan miqdorga nisbatan 2 ming barobar ko'pligi, haydaladigan yerlarning 40 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish uchun mutlaq yaroqsiz holga keltirilganidan ham anglash mumkin.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, tabiatda turlarning rivoji bamisoli zanjirdek bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular o'zaro yaxlit ekotizimni tashkil etadi. Hatto bir giyohning yo'qolishi ham yashil olamning muvozanati buzilishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Tabiatning noyob flora va faunasini muhofazalash, bunday hududlarni kengaytirish maqsadida sayyoramizda 11 yanvar — Qo'riqxona va milliy bog'lar kuni sifatida nishonlanadi. Mamlakatimizda ekologik muhitni yaxshilash, atrof-tabiiy muhitni saqlash borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Atrof-

muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonun,[5] tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari, shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish, turli toifadagi qo‘riqlanadigan hududlarni tashkil qilish va ularda alohida foydalanish rejimini o‘rnatish tartib-taomillari va boshqa masalalarni belgilab bergen 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi va amal qilmoqda.

Maftunkor yurtimizda o‘simgiliklarning 4 yarim mingga yaqin turi o‘sadi. Biologik va landshaft rang-barangligi ham asosiy milliy boyliklarimizdan sanaladi. Umurtqali hayvonlarning faunasi 105 turdag'i sut emizuvchilar, 441 turdag'i qushlar, 60 turdag'i sudralib yuruvchilar, uch turdag'i ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan jonivorlar va 76 turdag'i baliqlarni tashkil etsa, umurtqasizlar faunasi o‘n besh ming turga yetadi.[4]

Betakror tabiatimiz va undagi bioxilma-xillikni to‘liq muhofaza etish, ularni qayta tiklash va ko‘paytirish ishlari muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda amalga oshirilmoqda. Respublikamizda 8 ta davlat qo‘riqxonasi (Chotqol, Zomin, Nurota, Hisor, Kitob, Surxon, Zarafshon, Qizilqum), 2 ta milliy tabiat bog‘i (Ugom-Chotqol milliy tabiat bog‘i, Zomin milliy tabiat bog‘i), 1 ta davlat biosfera rezervati (Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati), 13 ta davlat buyurtmaxonalari, 7 ta davlat tabiat yodgorligi va hayvonlarni ko‘paytirishga mo‘ljallangan 3 ta tabiiy pitomnik («Jayron» ekomarkazi hamda Buxoro va Navoiy viloyatlarida joylashgan 2 ta yo‘rg‘a-tuvaloq parvarishlash pitomnigi) faoliyat ko‘rsatmoqda.[2] Shuningdek, 83 ta mahalliy ahamiyatga ega muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mavjud. Bu hududlarda milliy hamda xalqaro «Qizil kitob»larga kiritilgan 181 turdag'i hayvon, 400 turdag'i o‘simgilik davlat muhofazasiga olingan.[3]

Bugungi kunda qo‘riqxonalar va milliy tabiat bog‘lari xodimlari nafaqat o‘z hududidagi tabiiy boyliklarni asrash, balki aholi o‘rtasida muhofaza etiladigan tabiat boyliklarining inson uchun nechog‘li muhimligini tushuntirish, atrof-muhit ozodaligi va bioxilma-xillikni saqlash bilan bog‘liq targ‘ibot-tashviqot ishlarini ham olib borayotgani tahsinga loyiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 aprelda imzolangan “Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi[6] farmonida ekoliya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash, chiqindilar bilan bog‘liq ishlar samarali amalga oshirilishini ta‘minlash belgilandi. Bugungi kundagi insoniyat oldida turgan ekologik muammolar global muammolar hisoblanadi, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlatlar bir-birlari bilan xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari lozim bo‘ladi. O‘zbekiston ham global ekologik muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro ekologik konvensiyalarga a’zo bo‘layapti. Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan joriy yilning yoz oyida xalqaro “Orxus konvensiyasi: sog‘lom atrof-muhit va barqaror rivojlanishni oqilona boshqarishda jamoatchilikning samarali ishtiroki” mavzusida xalqaro davra suhbati bo‘lib o’tdi. Yig‘ilish BMT YEIK Orxus konvensiyasi kotibiyati, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha Germaniya agentligi(GIZ), BMTning tarqqiyot dasturi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil qilindi.[3] O‘zbekistonning 4ta obyekti Sudochye ko‘li, Dengizko‘l, Aydar-Arnasoy ko‘llar

tizimi va To'dako'l va Quymazor suv omborlari xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan Ramsar suv-botqoq yerlari ro'yxatiga kiritilgan.[3,7] Samarqand viloyatida yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlashga doir konvensiyasi Tomonlar konferensiyasining 14-yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan vazifalarni bajarishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda jamoat birlashmalari va fuqarolik jamiyati institutlari, siyosiy partiyalar ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, respublikamizda ekologik muammolar va atrof-muhit muhofazasidagi loqaydliklarga barham berish, atrof-muhit muhofazasi va ekologik holatni sog'lomlashtirish ishida jamoatchilik ishtirokining faolligini har tomonlama kuchaytirish, bu borada qabul qilingan qonunlar hamda qarorlar ijrosini ta'minlash insoniyatning asosiy maqsadi bo'lmog'i lozim.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatimizda olib orilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi iqtisodiyotning ekologik jihatdan mutanosib rivojlanishi tarafdori va ekologik muammolarni hal etishda o'z sa'y-harakatlarini, birinchi navbatda, ushbu muammolarning iqtisodiy jihatlariga qaratadi. Barcha ekologik muammolarni va u bilan bog'liq fuqarolar salomatligini himoya qilish masalalarini faqat davlat byudjetiga yuklash to'g'ri bo'lmaydi.

Muxtasar aytganda, atrof-muhitni muhofaza qilish, kelajak avlodga tabiiy boyliklarini bus-butun yetkazish, ekologik muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shish oldimizda turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Ekoloji.com sayti.
2. Yuz.uz sayti.
3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rasmiy web sayti.
4. J.T.Xolmo'minov (2018) "Ekologiya huquqi".
5. Lex.uz rasmiy sayti.
6. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 17-son, 287-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.08.2022-y., 06/22/189/0734-son; 02.06.2023-y., 06/23/81/0320-son)
7. Yangi O'zbekiston gazetasi rasmiy sayti.